

**YOSHLARIMIZNI O‘ZLIKNI ANGLASH, MILLIY VA UMUMINSONIY
QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH, ULAR O‘RTASIDA
KITOBXONLIK MADANIYATINI KENG OMMALASHTIRISH**

Radjabova Sevara Inomjonovna
Toshkent viloyati Zangiota tumani
14-IDUM ning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Ma'lumki, zamonaviy mutaxassis o'z sohasining mohir ustasi bo'lishi bilan birga, nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, og'zaki nutq ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Til - davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma'naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.

1989 yilning 21 oktyabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga - Davlat tili maqomi berildi.

"O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida" 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'RQ-615-son) 1-moddasi bilan 21 oktyabr sanasi O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 33 yil to'lishi va mazkur sana joriy yilda ilk marta "O'zbek tili bayrami" sifatida nishonlanishi munosabati bilan butun respublika miqyosida qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Shu munosabat bilan Zangiota tumanidagi 14- maktabda O'zbekiston Kasaba uyushmasi Federatsiyasi ijroiya qo'mitasi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining 2022 yil 19 oktyabrdagi qarori ijrosini ta'minlash hamda o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ular orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazildi. Bellashuv jarayonida barcha maktablarning kitobsevar o'quvchilari ishtirok etib, test topshiriqlarini va og'zaki savol-javob shartlarini bajardilar.

Bellashuv tadbir jarayonida ishtirok etgan O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashidan Shuhrat Jalilov, Toshkent viloyati ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi ma'sul tashkilotchisi Ravshanoy Gaziyeva va Zangiota tumani ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi kengashi raisi Gavhar Mo'minova hamda maktab rahbari Xasanova Nargiza To'laganovna, ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbisi G'ulomova D.A., oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi Jo'rayeva Munis Salomovna, maktab kasaba uyushmasi va matab kutubxonachisi Guljaboyeva Zuxra Nabiyevna hamkorligida "Ona tili, adabiyot, o'zbek tili fanlari metodbirlashmasi" o'qituvchilari o'quvchilarga omad tilab, o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdilar.





Bayram tadbirlari tadbirlarga ulanib Joriy yilning 1-noyabr sanasida Zangiota tumani 14-IDUMda faoliyat yuritayotgan "Ona tili, adabiyot,o‘zbek tili fanlari metodbirlashmasi" tuman Axborot Kutubxona Markazi bilan hamkorlikda Sirojiddin Sayyid tavallud ayyomi munosabati bilan adabiy-badiiy kecha tashkil etildi.





Mazkur tadbirda tuman hokimiyati madaniyat bo'limidan vakillar ham ishtirok etdilar. 14-IDUMning iqtidorli o'quvchilari tomonidan Sirojiddin Sayyid she'rlaridan namunalar o'qildi. Tadbir barchada katta taassurotlar qoldirdi.